



## GIDRONEFROZ KASALLIGINING KELIB CHIQISHI, DIAGNOSTIKASI VA ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI

**Xushvaqtov Ilyos Shodiqul o'g'li**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali talabasi

[Ilyosbekxushvaqtov1@gmail.com](mailto:Ilyosbekxushvaqtov1@gmail.com)

**Vohobov Nodir Safarovich**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali

Kafedra: Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi, urologiya va bolalar urologiyasi kafedrasi assistenti

Telefon: +998 94 469 10 11


Elektron pochta: [uralurolog@mail.ru](mailto:uralurolog@mail.ru)

### **Annotatsiya.**

Bu maqolada buyrak jomi va kosachalarining kengaya borishi natijasida buyrak o'lchamining kattalashaverishi bilan namoyon bo'ladi. Asosan buyrak jomining siydik nayiga o'tish qismida mexanik to'siq borligi gidronefrozga sabab bo'ladi. Tashhis qo'yish kechikkan sari kasallik kuchayadi.

**Kalit so'zlar:** Buyrak, gidronefroz, siydik, buyrak jomi, kosacha, siydik naychalari, parenxima, sidik yo'li.

**Kirish.** **Gidronefroz** (gidro... va yun. nephros —buyrak) —Buyrak jomi va kosachalarining kengaya borishi natijasida buyrak o'lchamining kattalashaverishi bilan namoyon bo'ladi. Asosan buyrak jomining siydik nayiga o'tish qismida (piyeloureteral segment) mexanik to'siq borligi gidronefrozga sabab bo'ladi. Shu sohada tosh turib qolishi yoki o'sma paydo bo'lishi ham gidronefrozga olib keladi. gidronefroz chaqaloqlarda ham, keksalarda ham uchraydi. Bu asosan mexanik to'siqning kattakichikligi va to'silib qolgan sohaning qanchalik torayganligiga bog'liq. Gidronefrozda bolalar ba'zan bezovta bo'lib, qorni yoki kindik atrofi simillab og'riydi. Katta yoshdagilarda esa gidronefroz bor tarafdagi bel sohasi uvishib, og'riydi, vaqt-vaqti bilan og'riq kuchayishi ham mumkin. Siydikda leyqotsitlar, ba'zan eritrotsitlar paydo bo'lib, vaqt o'tgan sari siydik zichligi kamaya boradi. Bemorning qorni paypaslanganida






buyrak qo‘lga unnashi mumkin. Kechiktirilgan hollarda esa hatto qorin old devori bo‘rtib turadi. Ultratovush tashhisda va ekskretor urogrammada buyrak kosacha-jom sistemasi kengayganligi qayd etiladi. Tashhis qo‘yish kechikkan sari buyrak tobora kattalashaverib, nihoyat suyuqlik bilan to‘la xaltachaga o‘xshab qoladi va o‘z faoliyatini yo‘qotadi. Bu holda jarroxdik usuli bilan buyrak olib tashlanadi.

**Gidronefroz kasalligi belgilari.** Gidronefroz ko‘pincha hech qanday belgisiz rivojlanadi. Bemorlar ko‘pincha siydik miqdorini og‘riq paytida kamayishi og‘riq bosilgandaya‘na ko‘payishi qayd qiladilar. Gidronefrozni so‘nggi bosqichlarida keskin og‘riqlar yo‘qolib boradi. Ba‘zan gidronefroz bemorlarda buyrak sanchig‘i paytida tana haroratining ko‘tarilishi, piyelovenoz refleksi tufayli yalig‘lanishi jarayoni qo‘shilishiga bo‘liqdir.

Kasallikning ikkinchi belgisi qovurg‘a ostidan paypaslab topiladi, ba‘zan esa gidronefroz juda katta bo‘lganda qovurg‘a ostidan bo‘rtib ko‘zga tashlanib turadigan o‘smanni topilishida qon siyish gidronefrozda tez-tez uchrab turadigan ba‘zan, esa birdan-bir belgisi.

Bir tomonlama aseptik gidronefroz asta-sekin rivojlangani sababli bemorlar biroz o‘zlarini sog‘lom sezaverishadi. Ikkinchi buyrak kasal buyrakni vazifasini ham o‘tagani tufayli bir tomonlama gidronefrozni og‘ir holatlarida ham buyrak yetishmovchiligi, yuzaga chiqmaydi. Ikki tomonlama gidronefroz asta-sekin rivojlanuvchi surunkali buyrak yetishmovchiligiga va uremiya oqibatida o‘limga olib beradi. Gidronefrozning oqibatlariga misol qilib, o‘tkir va surunkali piyelonefritlarni, ikkilamchi siydik toshlarini va gidronefrotik boyrakning yorilib ketishi kabi halatlarni ko‘rsatish mumkin. Kasallik tarixini o‘rganilganda bemorda tez-tez bo‘lib turgan buyrak sanchiqlari yoki buyrak sohasidagi har xil og‘riqlar tashxis uchun asos bo‘la oladi. Bemorni paypaslab, kattalashib ketgan gidronefrotik gidronefrozni topish mumkin. Og‘riq belgisini buyrak toshda, nefroptozda uchraydigan og‘riqdan farqlash kerak. Buning uchun rentgen qilinsa, rentgenonegativ toshlarni topilib qolishi, buyrak tosh kasalligining borligini tasdiqlash mumkin.

**Gidronefroz rivojlanishi.** Gidronefrozning oxirgi bosqichlarida buyrak jomining devorlari yupqalashib, gumbazi qo‘shuvchi to‘qimadan iborat bo‘lgan xaltaga aylanib qoladi. Kengayib borayotgan jom asta-sekin buyrak to‘qimalarini itarib chetga suradi.






Buyrak to'qimalari jom hamda buyrakni qobiq pardasi orasida qisiladi, kosachalarning ichki bosimi, buyrak so'rgichlarini ezadi va ularni yappaytiradi, gumbazlaridagi arteriya va vena qon-tomirlari ham eziladi, buyrak to'qimalarida, avvalom bor atrofiyaning tezrok borishiga sababchi bo'lgan, buyrakni miya kobig'idagi qon va limfa aylanishi buziladi. Olib tashlangan buyraklarni arteriyaografiyasi hamda gidronefroz bemorlarning buyraklarini arteriografiyasini sinchiklab o'rganilganda, ulardagi buyrakning asosiy arteriya qon-tomirlarini torayganligini va venalarini bujmayib, berkilib qolganligini ko'rish mumkin. Buyrak to'qimalarining atrofiyasi qancha rivojlangan bo'lsa, undagi qon-tomirlar shuncha toraygan bo'ladi va ular birbirlaridan shuncha o'zoqlashadi. Gidronefrozning oxirgi bosqichlarida buyrak juda ham qattiqlashadi, uning eti juda yupqalashadi.

**Zamonaviy davolash usullari:** Gidronefrozni infeksiyani oldini olish uchun antibiotiklar va noqulaylikni bartaraf etish uchun og'riq qoldiruvchi vositalar bilan davolash mumkin. Keyinchalik og'ir holatlarda, to'siqni olib tashlash uchun jarrohlik aralashuv talab qilinishi mumkin. Gidronefrozni davolash usullari, masalan, ureteral stent yoki nefrostomiya naychasini o'rnatish obstruktsiyani chetlab o'tish uchun ishlatilishi mumkin, shu bilan birga strukturaviy anormalliklarni tuzatish yoki blokirovkaga olib keladigan o'smalar yoki toshlarni olib tashlash uchun ko'proq invaziv operatsiyalar talab qilinishi mumkin. To'siqni olib tashlash va normal siydik oqimini tiklash uchun dori-darmonlar yoki jarrohlik aralashuvni o'z ichiga oladi. Erta tashxis qo'yish va gidronefrozni tezda davolash buyraklarning uzoq muddatli shikastlanishining oldini olish uchun juda muhimdir.

Agar gidronefrozning asosiy sababi to'siq bo'lsa, gidronefrozni davolashda birinchi qadam obstruktsiyani bartaraf etishdir. Buni nefrostomiya deb ataladigan protsedura orqali amalga oshirish mumkin, bunda siydikni to'kish uchun teri orqali va buyrak ichiga trubka kiritiladi. Ba'zi hollarda siydikning buyrakdan siydik pufagiga oqib ketishiga yordam berish uchun siydik yo'liga stent qo'yilishi mumkin.

**Dorilar:** Agar gidronefroz infeksiya yoki yallig'lanish tufayli yuzaga kelsa, asosiy holatni davolash uchun antibiotiklar yoki yallig'lanishga qarshi dorilar buyurilishi mumkin.





**Jarrohlik:** Ba'zi hollarda gidronefrozni davolashning asosiy sababini tuzatish uchun jarrohlik talab qilinishi mumkin. Misol uchun, agar tiqilib qolish buyrak tosh yoki o'simtadan kelib chiqqan bo'lsa, to'siqni olib tashlash uchun jarrohlik kerak bo'lishi mumkin.

**Kuzatuv:** Ba'zi hollarda gidronefroz darhol gidronefrozni davolashni talab qilmasligi mumkin. Shifokor vaziyatni yomonlashtirmaslik uchun muntazam ultratovush tekshiruvini bilan kuzatishi mumkin.

**Hayot tarzi o'zgarishlar:** Agar gidronefroz buyrak toshlari kabi asosiy kasallikdan kelib chiqqan bo'lsa, ko'proq suv ichish va ba'zi ovqatlardan voz kechish kabi turmush tarzini o'zgartirish kelajakdagi hodisalarning oldini olishga yordam beradi.

**Xulosa:** Gidronefroz buyrak to'qimalarining bosim ostida siydik bilan kengayishi natijasida uning normal faoliyati buziladigan jiddiy patologiyadir. Kasallik tug'ma yoki orttirilgan sabablarga ko'ra rivojlanishi mumkin. Erta bosqichda simptomlar bilinmasligi mumkin, ammo kechikkan holatlarda bel sohasida og'riq, siydik ajralishining buzilishi va umumiy holsizlik kabi belgilar kuzatiladi. Tashxis qo'yishda ultratovush tekshiruvini, kompyuter tomografiya va siydik yo'llarining kontrastli rentgenologik tadqiqotlari muhim rol o'ynaydi. Davolash kasallik darajasi va sababiga qarab belgilanadi: yengil holatlarda dori vositalari bilan konservativ yondashuv qo'llanilsa, og'ir darajadagi gidronefroзда jarrohlik aralashuvi talab etiladi. Agar gidronefroz vaqtida aniqlanib, to'g'ri davolansa, buyrak funksiyasini tiklash mumkin. Biroq, kech bosqichlarda buyrak yetishmovchiligiga olib kelishi va buyrakni yo'qotish xavfi mavjud. Shu sababli, siydik tizimida har qanday o'zgarishlar sezilganda shifokorga murojaat qilish muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "**Gidronefroz**". Tibbiyot bo'limi, Toshkent, 2023.
2. Wikipedia. "**Gidronefroz**". O'zbekcha versiya. URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gidronefroz>
3. Apollon kasalxonalarini blogi. "**Gidronefroz: Belgilari, Sabablari va Davolash**". Apollon Hospital, 2024. URL: <https://www.apollohospitals.com>.



**4.Pediatric Nephrology.** Muallif: T. K. Mattoo. Springer, 2022.

**5.Brenner va Rector's The Kidney.** Mualliflar: Barry M. Brenner, Ronald H. Cohen. Elsevier, 11-nashri, 2023.

**6.Nephrology and Hypertension: A Companion to Brenner and Rector's The Kidney.** Muallif: Barry M. Brenner. Elsevier, 2020.

**7.Gidronefroz: Patofiziologiya va Davolash.** Muallif: Jonathan J. Weinberg. Academic Press, 2021.